



SIRDARYO VILOYATI SHARITDA QOVUNDAN
QURITILGAN MAHSULOTLAR TAYYORLASH
TEXNALOGIYASI.

M.A.Maxamadov

D.D.Hasanov

Guliston davlat universiteti

Zhong Weizhou

Shansi universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640507>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 09-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 11-iyun 2026 yil

KEYWORDS

kimyoviy tarkib, suv, qandlar, oqsil, shuningdek, kaliy, magniy, kalsiy, mineral, moddalar, vitaminlar.

ABSTRACT

Prezidentimiz 2025-yil 17-noyabrdagi agrar sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha taqdimotda "fermerlarni rag'batlantirish, ularda ishonch va iqtisodiy manfaatni kuchaytirish – qishloq xo'jaligi rivojining asosiy tayanchi hisoblanadi", deb ta'kidlab, bu boradagi qo'llab-quvvatlash vositalari doimiy ravishda kengaytirib borilishini qayd etdi. 2026-yildan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ("O'z mablag'i va qisman kredit hisobidan hosil yetishtiradigan fermerlar" uchun) realizatsiya qilishda QQsning "nol" stavkasi joriy etilishi – mayda va o'rta fermer xo'jaliklarining qayta ishlash yo'nalishiga o'tishini jiddiy rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, Sirdaryo viloyati sharoitida qovunni qayta ishlash – aniqrog'i, uni quritish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Qovun mevasi o'zining boy kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Ilmiy adabiyotlarda qovun tarkibida 90% gacha suv, 7-12% qandlar, 0,5-0,8% oqsil, shuningdek, kaliy, magniy, kalsiy kabi mineral moddalar va vitaminlar (C, A, B guruhi) mavjudligi qayd etilgan [3] Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qovun karotenoidlar va fenol birikmalariga boy. Apelsin rangli qovun go'shti ayniqsa β -karotinga boy bo'lib, u inson organizmida A vitaminiga aylanadi [3]. Qovun tarkibidagi biologik faol moddalar organizmda antioksidant, yallig'lanishga qarshi va saraton kasalliklarining oldini olish kabi muhim xususiyatlarga ega [7].

Gao va boshqalar (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda qovun tarkibidagi askorbin kislota (S vitamini), β -karotin, flavonoidlar va fenol kislotalarning miqdori yuqori ekanligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotda qovunning sog'liq uchun foydalari – antioksidantlik, yallig'lanishni kamaytirish va surunkali kasalliklarning oldini olish qobiliyati ilmiy asoslangan [3] [7] Meghwar va boshqalar (2025) tomonidan yovvoyi qovun ustida olib borilgan tadqiqotda qayta ishlash usullari (quritish, qovurish, pishirish) qovunning ozuqaviy va fitokimyoviy profiliga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quritish usullari namlikning kamayishi hisobiga uglevodlar, oqsil va tolaning konsentratsiyasini oshirgan.

Qovunni quritish – uni uzoq muddat saqlash va ozuqaviy qiymatini saqlashning eng samarali usullaridan biridir. Jahon amaliyotida qovunni quritishning bir necha usullari

qo'llaniladi: quyoshda quritish, issiq havoda quritish (konvektiv), muzlatib quritish (sublimatsion) va mikroto'lqinli quritish

Gao va boshqalar (2025) tomonidan qovun bo'laklarini turli usullarda quritish bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotda quyidagi natijalar olingan

Turli quritish usullarining qovun sifatiga ta'siri (Gao va boshq., 2025 bo'yicha)

QURITISH USULI	HARORAT	QURITISH VAQTI	BIOAKTIV MODDALAR SAQLANISHI	ORGANOLEPTIK XUSUSIYATLAR
Muzlatib quritish	past	uzoq	eng yuqori	ajoyib
Mikroto'lqinli quritish	o'rta	qisqa	o'rtacha	yaxshi
Issiq havo 60°C	60°C	o'rtacha	o'rtacha	yaxshi
Issiq havo 70°C	70°C	qisqa	past	qoniqarsiz

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muzlatib quritish fizik xususiyatlar, fitokimyoviy birikmalar tarkibi va antioksidant faollikni saqlash bo'yicha eng yaxshi usul hisoblanadi. Shu bilan birga, mikroto'lqinli quritish an'anaviy issiq havoda quritishga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi. Issiq havoda quritish usullari ichida 60°C harorat optimal ko'rsatkich sifatida belgilandi

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, qovunqoqi tayyorlashning an'anaviy usullari asrlar davomida shakllangan. Qovunning eti tig'iz navlari (Qizilurug', Oq urug', Ko'kcha, Gulobi) oddiy usulda ilmoqlarda, eti bo'sh, yumshoq etli navlar (Bosvoldi, Toshloqi, Gurovak) esa so'kchaklarga yoyib 2-3 kun quritiladi, so'ngra simlarga osib qo'yiladi. An'anaviy usulda quritish ob-havo sharoiti va qovun tilimlarining qalinligiga qarab 6-12 kun davom etadi. 1 tonna qovunqoqi tayyorlash uchun 11,7-15,2 tonna yangi qovun talab etiladi. Tayyor qovunqoqining tarkibida umumiy qand miqdori 38-75,7%, quruq moddalar 76-91%, S vitamini 15,4-83,7 mg% ni tashkil qiladi

Sirdaryo viloyati qadimdan polizchilik rivojlangan hudud bo'lib, ayniqsa "Mirzacho'l qovuni" nomi bilan mashhur. Hozirgi kunda viloyatda "Oq urug'", "Obinovvot", "Ko'kcha" va "Jo'raqand" kabi navlar yetishtirilmoqda [4]

Norqulov va Ergashev (2024) tomonidan Sirdaryo viloyati sharoitida qovun yetishtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotda, viloyat tuproqlarining sho'rlanish darajasi yuqori ekanligi qayd etilgan. Tadqiqot Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi "Bahorning ilk kunlari" fermer xo'jaligi va "Mirzacho'l Donald Duck" MCHJning och tusli bo'z, kuchli sho'rlangan va sho'rxok tuproqlarida qovunning "Dakaro" navi ustida o'tkazilgan. 2025 yil Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanida joylashgan fermer xo'jaligining dala maydonida Sirdaryo viloyati qovunlarini sanoat usulida qayta ishlash imkoniyatlari tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida "Oqurug'" va "Ko'kcha" navlari quritib ko'rildi va eng maqbul deb topildi [5].

Mutaxassislarning qayd etishicha, ushbu navlar tabiiyligi, tozaligi, xushbo'yliigi va shirin ta'mi bilan ajralib turadi, hatto 85 darajagacha sovutilgan holda ham o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi. Bu xususiyatlar quritilgan mahsulot tayyorlashda sifatni saqlash imkonini beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentimizning 2025-yil 26-apreldagi “ Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni eksport qilish salohiyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlari
2. Norqulov U., Ergashev I. Qovun va tarvuz navlarining maqbul sug‘orish tartiblari va suv iste‘moli ko‘rsatkichlari // inLIBRARY. – 2024.
3. Qovunning “Oq novvot” va “Zargulobi” navlari hosildorligiga biostimulyatorlarning ta‘siri // UMSIDA, 2023.
4. Gao X., Yang J., Wang H., et al. Variations of physical properties, bioactive phytochemicals, antioxidant capacities and PPO activities of cantaloupe melon (*Cucumis melo* L.) slices subjected to different drying methods // *Frontiers in Nutrition*. – 2025. – Vol. 12. – P. 1548271.
5. Sirdaryo melons to be processed for industrial use in China // *FreshPlaza*. – 2026.
6. Sirdaryo qovunlari Xitoy bozori uchun sanoat asosida tayyorlanmoqda // *Ipaknews.uz*. – 2026.
7. Qovunqoqi // *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. – Vikipediya.
8. Yo‘ldoshev O‘.U. Poliz ekinlari urug‘larini qayta ishlash texnologiyasining zamonaviy holati // *Mudarris Ziyo*. – 2026.
9. Qovun mevasini saqlashning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati // *Zenodo*. – 2023.
10. Meghwar P., et al. Nutritional Composition and Phytochemical Changes in Wild Melon (*Cucumis melo* var. *agrestis*) Induced by Drying, Frying, and Cooking // *Journal of Food Science*. – 2025. – Vol. 90(5). – P. 1-11.
11. Ashurmetov A.A. Morfologicheskie osobennosti tsveteniya i plodoobrazovaniya razlichno‘x sortov do‘n G‘G‘ Voproso‘ sel., semen. i texnol. vo‘rahivaniya ovohebaxchevo‘x kultur i kartofelya v Uzbekistane. *Nauchno‘e tr. Tashkentskogo SXI. Vo‘p.12. 1991. - S.26-31.*
12. Balashev N. N. *Baxchevodstvo*. Toshkent: «O‘qituvchi», 1976. 100-101 b.
13. Belik V.F. *Baxchevodstvo*. Moskva: “Kolos”, 1982. 89-92 b.
14. Buriev X.Ch. *Biologiya tsveteniya i semennaya produktivnost to‘kvenno‘x kultur*. Toshkent: «Mehnat», 1992. 15-18 b.
15. Bo‘riev X. Ch. *Sabzavot ekinlari selektsiyasi va urug‘chiligi*. Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 1998. 130-131 b.
16. Bo‘riev X. Ch, Ashurmetov O.A. *Poliz ekinlari biologiyasi va etishtirish texnologiyasi*. Toshkent: «Mehnat», 2000. 56-59 b.
17. Bo‘riev X. Ch, Dusmuratova S.I. *Polizchilik (ma‘ruza matni)*. Toshkent, 1999. – 5-12 b.
18. Kurbonov E. S. et al. Improved two-track harrow parameters’ impact on performance metrics for planted cotton seed’s sustainable growth // *AIP Conference Proceedings*. – AIP Publishing LLC, 2026. – T. 3390. – №. 1. – C. 030031.
19. Kurbonov, E. S., Ungarov, A. A., Yuldasheva, D. H., & Makhmudov, I. R. (2026, March). Improved two-track harrow parameters’ impact on performance metrics for planted cotton seed’s sustainable growth. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3390, No. 1). AIP Publishing.